

QOVOQ O'SIMLIGINING BIZ BILMAGAN DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, biologiya
yo'nalishi ikkinchi bosqich talabasi*

E-mail: madinaxonabduxalilova@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dorivor o'simliklarning o'rganilish tarixi hamda hammamizga tanish bo'lgan qovoq o'simligining biologiyasi hamda dorivorlik xususiyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Cucurbita, Cucurbitaceae, karotinooidlar, nikotin kislota, eczema.*

Абстрактный. *В данной статье собраны интересные сведения об истории изучения лекарственных растений и биологии и лечебных свойствах всем известного растения тыквы.*

Ключевые слова. *Cucurbita, Cucurbitaceae, каротиноиды, никотиновая кислота, экзема.*

Abstract. *This article contains interesting information about the history of the study of medicinal plants and the biology and medicinal properties of the well-known pumpkin plant.*

Keywords. *Cucurbita, Cucurbitaceae, carotenoids, nicotinic acid, eczema.*

Hozirgi kunda dorivor o'simliklarning yer yuzida 10-12 ming turi mavjud. O'zbekistonda 577 turi uchraydi, shulardan 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilib kelmoqa. O'zbekistonda Akademik S.Yu.Yunusov nomidagi o'simlik moddalari kimyosi institutining olimlari tomonidan markaziy Osiyoda o'sadigan 4000 dan orti o'simliklar tarkibida alkaloidlar borligi aniqlangan, ulardan 292 turini chuqur o'rganishi natijasida 1250 dan ortiq alkaloid ajratib olingan. Bundan tashqari 50 dan ortiq o'simliklarda glikozidlar, 160 xil o'simlikning glikozidkari 250 o'simlikdan lipidlar, 150dan ortiq o'simlik turidava flavonoidlar va kumarin asosida qator dorivor vositalar yaratildi va amaliy tibbiyotga tadbiiq etildi.



Qovoq- Cucurbita, qovoqdoshlar - Cucurbitaceae oilasiga kiradi. Qovoq turlari bir yillik, poyasining uzunligi 4-5 m ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi qirrali, dag'al tukli, jingalaklari yordamida osilib o'sadi. Bargi juda ham yirik, yuraksimon, chuqur 5 bo'lakli, dag'al tukli bo'lib, poyada uzun bandi yordamida ketma-ket joylashgan. Gullari sariq rangli, yoqimli hidli, bir jinsli, erkak gullari barg qo'ltig'ida to'p-to'p bo'lib, urg'ochi gullari esa yakka-yakka holda joylashgan.

Gulkosachasi qo'ng'iroqsimon, 5 bo'lakli, gultojisi voronkasimon qo'ng'iroqsimon, besh bo'lakli. Otaligi 5 ta, onalik tuguni 3 xonali, pastga joylashgan. Mevasi - yirik, ko'p urug'li, seret va shirali, turli rangdagi va shakldagi ho'l meva. Urug'i oq rangli, yapaloq eliipsimon bo'ladi.

Qovoq urug'i tarkibida 50% gacha yog', vitamin C va B 1, organik kislotalar, karotinoidlar va boshqa moddalar bo'ladi. Mevasining etli qismi tarkibida qandlar (4-11%), vitamin C, B 1 va B2 16 m g % gacha karotinoidlar, nikotin kislota va boshqa birikmalar bor.

Qovoq urug'i lentasimon (ba'zan yumaloq) gijjalami haydash uchun ishlatiladi.

Qovoq mevasi siydik haydash ta'siriga ega. Shu bilan bir qatorda u organizmdan xlor tuzlarini chiqib ketishini tezlashtiradi. Shuning uchun ham mevasining yumshoq qismi jigar va buyrak kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Qovoq mevasidan olingan karotinning yog'li eritmasi terining ba'zi surunkali kasalliklarini (ekzema, qiyin bitadigan yaralar), yiringli yara, kuygan va sovuq olgan yerlami hamda shilliq pardaning zararlangan yerlarini davolashda ishlatiladi.



Qovoq urugʻlari, ayniqsa, ayollar uchun foydali hisoblanadi. Sababi uning tarkibida E vitaminining yuqori miqdori mavjud, u antioksidant xususiyatiga ega. Shuningdek, karotenoidlar yalligʻlanishni va surunkali kasallik xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari koʻplab mutaxassislar prostatitni davolashda qovoq urugʻidan foydalanishni tavsiya qiladi. Qandli diabetga chalingan bemorlar uchun qovoq urugʻining eng birinchi foydasi – qondagi qand miqdorini nazorat qilish. Qovoq urugʻini har kuni isteʼmol qilish insulin ishlab chiqarishni yaxshilashga yordam beradi va kasallikning rivojlanish xavfini kamaytiradi.

Vazn masalasida jon kuydiradiganlar uchun qovoq urugʻining yagona zarari yuqori kaloriya boʻlishi mumkin. Ularga kundalik ravishda 100 grammdan koʻp boʻlmagan urugʻ isteʼmol qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, qovoq urugʻi meʼda shirasining yuqori kislotaliligi va boshqa oshqozon-ichak kasalliklari uchun xavfli boʻlishi mumkin. Shuning uchun ham urugʻning foyda va zararlarini taqqoslagan holda ularni ratsionga kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov Oʻ., Ergashev.A, Abzalov A. va boshqalar. Dorivor oʻsimliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakkur-boʻstoni.2018.
2. .Xolmatov X. X., Habibov. Oʻzbekiston dorivor oʻsimliklari. Toshkent, 1971.
3. Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений СССР. Москва, 1976.
4. Murdaxayev Yu.M. Oʻzbekistonda vatan topgan dorivor oʻsimliklar. Toshkent, 1990.
5. Xolmatov X.X. va boshqalar Ruscha-lotinch-a-oʻzbekcha dorivor oʻsimliklar lugʻati, Toshkent, 1992.
6. Xolmatov H.X., Ahmedov O. Farmakognoziya. - 1,2 qism. - Toshkent.: Fan, 2007.
7. Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений СССР. Москва, 1976.
8. Мурдахаев Ю. М. Лекарственные культуры в Узбекистане, Ташкент, 2001
9. <https://daryo.uz/2020/11/24/qovoq-urugining-salomatlik-uchun-qanday-foydali-xususiyatlari-bor/>